

“GULSHAN UL-ASROR” ASARIDA O‘Z VA O‘ZLASHMA QATLAMGA OID SO‘ZLAR IFODASI

Nilufar Choriyevna TASHMATOVA

o‘qituvchi

Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

O‘zbekiston, Toshkent

tashmatovanilufar365@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Xorazmda yashab ijod etgan mumtoz adabiyotimiz yetuk namoyondalaridan Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” masnaviysi leksikasining o‘z va o‘zlashma qatlamga oid so‘zlar statistikasi va tahlili yuzasidan ma’lumotlar keltirilgan. Masnaviy lug‘at boyligidagi 2031 ta so‘zning genezisi aniqlanib, o‘z va o‘zlashma qatlamlar nisbati belgilangan holda, ularning o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar: turkiy so‘z, o‘zbek tili, masnaviy, arabcha, fors-tojikcha, o‘zlashma, leksema.

ВЫРАЖЕНИЕ СЛОВ, ОТНОСЯЩИХСЯ К ИСКОННОМУ И ЗАИМСТВОВАННОМУ СЛОЯМ, В ПРОИЗВЕДЕНИИ «ГУЛЬШАН УЛ-АСРОР»

Нилуфар Чориевна ТАШМАТОВА

преподаватель

университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Узбекистан, Ташкент

Аннотация

В данной статье представлены сведения о статистике и анализе слов, относящихся к исконному и заимствованному слоям лексики маснави «Гульшан ул-асрор» Хайдара Хорезми – одного из выдающихся представителей классической литературы, жившего и творившего в Хорезме в конце XIV – начале XV– века. Определена генетическая принадлежность 2031 слова словарного состава маснави, установлено соотношение исконных и заимствованных слоев, а также раскрыты их специфические особенности.

Ключевые слова: тюркское слово, узбекский язык, маснави, арабский, персидско-таджикский, заимствованный, лексема.

Tilining rivojlanish bosqichi boshqa tillar bilan o‘zaro aloqalarining kengayishi bilan bog‘liq holda shakllanadi. Boshqa chet til unsurlarining kirib, o‘zlashib qolishi tarixiy va qonuniy hodisa hisoblanadi. Mamlakatlar va xalqlar o‘rtasida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlarning yaxshilanishi, ayniqsa, bir-biriga qo‘shni xalqlarning madaniy aloqalari natijasida yangi g‘oyalar, fikrlar,

tushunchalar qabul qilinadi. Bu tarixiy jarayon muayyan xalq yoki tilning o'ziga xos taraqqiy etishiga, til lug'at tarkibining boyishiga olib keladi [4;89].

Turkiy xalqlar adabiy tillarining shakllanish va rivojlanish dinamikasini atroflicha tadqiq etishda XI – XIV asr yozma yodgorliklari tilini tilshunoslik nuqtai nazardan atroflicha tahlil qilish, uning hududiy dialektlar bilan munosabatlari, shuningdek, ichki va ekstralingvistik omillarning o'zaro ta'siri jarayonida til strukturasi turli darajalari taraqqiyotini farqlovchi differensial belgilarini o'rganish alohida o'rin tutadi [5;136].

XIII – XV asrlar turkiy xalqlar hamda turkiy tillar tarixida murakkab davrini tashkil etadi. Bu davrda O'rta Osiyo (hozir Markaziy Osiyo–*N.T.*) va Oltin O'rda muzofotida til xususiyatlari jihatidan bir-biridan farq qiluvchi nodir asarlar yaratildiki, ularning barchasi turkiy tillarning o'g'uz-qipchoq, qarluq-uyg'ur guruhlariga xos bo'lgan fonetik, leksik va morfologik xususiyatlari aks etgan. Mazkur yodnomalarning ko'pchiligi eski o'zbek adabiy tilining shakllanishida zamin vazifasini o'tagan. E'tiborli manbalar sirasiga XIV asr oxiri – XV asr boshlarda yashab ijod qilgan Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” asarini ham kiritish mumkin.

Yodnoma matnida jami 2031ta leksema ishlatilgan bo'lib, shundan 1115 (54,9%) tasini turkiy, 590 (29,05%) tasini arabcha, 310 (15,26%) tasini forschatojikcha, 9 (0,44%) tasini qadimgi yahudiy, 3 (0,15%) tasini yunon, 3 (0,15%) tasini sug'd, 1 (0,05%) tasini sanskritcha tilidan o'zlashgan so'zlar tashkil etadi.

Genetik jihatdan o'zbek tili turkiy tillar oilasiga kiradi va bu til uchun turkiy tillarning negiz leksikasi qadimiy asos hisoblanadi. Obida tilida iste'molda bo'lgan 1115 ta so'zdan iborat turkiy qatlamning tarixi ko'hna yozma manbalarga borib taqaladi. Zero, moziyda bitilgan yodnomalar umumxalq tilining muhim xususiyatlarini o'zida mujassam etgan bo'lib, xalqning qadimgi madaniyatini aks ettirgan. Ular orqali o'zbek millati tarixi va o'zbek tili taraqqiyotiga oid ko'pgina qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Shu nuqtai nazardan, masnaviy so'z boyligini qadimgi turkiy til va eski turkiy tilning dastlabki yodgorliklarida qayd etilgan leksik birliklar bilan qiyosiy o'rganish asardagi arxaik hamda XIV asr oxiri va XV asr

boshlari uchun xarakterli bo‘lgan so‘zlarni aniqlashda yordam beradi. Tub so‘zni belgilovchi asosiy mezon, birinchidan, bu so‘zning genetik jihatdan o‘sha tilniki ekanligi, ikkinchidan, uning qadimiy davrlarga oidligidir. Kuzatishlar “Gulshan ul-asror” leksikasida quyidagi sof turkiy so‘zlar qo‘llanishda bo‘lganligini ko‘rsatadi: *ariğ* “toza”, *ayru* “o‘zga, boshqa”, *asru* “juda ko‘p, ortiq, talay”, *ačiq* “achchiq”, *yaği* “dushman”, *yay* = “tarqatmoq”, *yay* “kamon”, *ilik* “qo‘l”, *itik* “o‘tkir, keskir”, *iyä* “ega”, *yir* “ashula, qo‘shiq, jir”, *yipäk* “ipak”, *yip* “ip”, *kebäk* “kepak”, *kök* “osmon”, *qulavuz* “yo‘l boshlovchi”, *qursağ* “qorin”, *qiyat* “o‘zbek urug‘laridan birining nomi”, *avuč* “hovuch, changal”, *tamuğ* “do‘zax” va h.k.

Bordi-yu keltirdi avučlab raván,

Köza pišurdilar ani ul zamán [7;5].

Tekshirilayotgan manbada *avuč* so‘zi “hovuch, siqim” ma’nosini ifodalagan: Leksema ilk bor “Oltun yoruq” yodnomasida *adut* shaklida qo‘llanilgan: *Ayača aš bermiš adutča suv tutmiş* – bir kaft hajmicha ovqat, bir hovuch miqdorida suv bermoq (DTS,14). Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonida *avuč*: *Uqušsuz kiši avučča titik* – zakovatsiz odam bir hovuch loy kabi bo‘ladi (QBL, 40), *avut* (DTS,71), Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida *avut* (MK,I,111), *ađut*: *Bir ađut neğ* (MK,I,85) fonetik variantlari kuzatiladi. Alisher Navoiy asarlari, xususan, “Mahbub ul-qulub”da atamaning “chapak” ma’nosi ham aks etgan: *Biyik ün bilä avuč qağmaği har dam, xirad va ázarm qušlari tapmaq üçün ram* (MQ,25). Bundan ko‘rinadiki, XV asrga kelib atamaning ma’nolari kengaygan. Bu ot qadimgi turkiy tilda “ikki qo‘l shapalog‘i bilan olmoq” ma’nosini anglatgan *abu-* fe‘lidan *-č* qo‘shimchasi bilan yasalgan. Keyinchalik bu so‘z tarkibida quyidagi tovush o‘zgarishlari voqe bo‘lgan: ikki unli oralig‘idagi *b* undoshi *v* undoshiga almashgan: *abuč* > *avuč*. O‘zbek tilida atamaning boshlanishiga *h* undoshi qo‘shilgan: *avuč* > *havuč* (O‘TIL,I, 595).

Har bir tilning shakllanish va taraqqiyot bosqichlarida tilning o‘z qatlami ichki imkoniyatlari asosida yuzaga kelgan so‘zlardan tashkil topadi. Yozma yodgorliklar tilidagi so‘zlar qat’iy qonunlar asosida yasalgan. “Yasama so‘z ma’no jihatdan o‘ziga bog‘liq bo‘lgan o‘zakdan, o‘sha so‘zning har qaysi emas, aynan tutash ma’noli

semasidan urchiydi. Agar yasama soʻzning morfem tarkibi chuqur tahlil qilinsa, oʻsha ildizga yetib boriladi.

Asar tarkibidagi oʻz qatlamga oid soʻzlar asl turkiy soʻzlardan yasalgan leksemalar (*közçi* “koʻruvchi” < *köz* “koʻrish aʼzosi”; *tüzlük* “toʻgʻrilik” < *tüz* “toʻgʻri”, *öksük* ”oʻksuk, qiyinchiliklar qurshovida” < *öksü*= ”oʻksumoq, xafa boʻlmoq”, *emgäk* “qiyinchilik” < *emgä*= “zahmat chekmoq”, *kezlägüçi* “yashiruvchi, berkituvchi” < *kezlä*= “yashirmoq, berkitmoq”) va h.k

Ul kişilərki bu uláq mindilär,

Barča yol emgäklärinin tindilär [7;10].

Eski oʻzbek tilidagi *emgäk* leksemasi “mehnat, zahmat, qiyinchilik” (OʻTIL, V, 36) maʼnosini ifodalab kelgan. Bu ot qadimgi turkiy tildagi “mehnat”, “mashaqqat” maʼnosini anglatadigan *əη* otining *əM* shaklidan *-ga* qoʻshimchasi bilan yasalgan feʼlga (Devon, I, 281; DS, 172) *-k* qoʻshimchasini qoʻshib yasalgan (ESTY, I, 273; Devon, I, 134; DS, 172): (*əη* > *əM+gä*= *əMgä-*)+*k*+ *əMgäk*.(OʻTIL, I, 463).

Oʻzlashmalardan turkiy qoʻshimchalar yordamida yasalgan qorishiq soʻzlar (*vásitasiz* “vositasiz” < *vásit* “oʻrta, oʻrtadagi”; *čağla*= vaqtini chogʻ(yaxshi) oʻtkazmoq” < *čağ* “sogʻlom”; *xušliği* “yoqimliliği, yaxshiligi” < *xuš* “yoqimli, yaxshi”) kabi mavzuviy guruhlariga ajratilib, tahlil etilgan.

Dunyo xalqlari oʻrtasida tarixiy taraqqiyot jarayonida oʻzaro iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, madaniy aloqalar sodir boʻladi. Natijasida tillarning lugʻat tarkibi yangi tushunchalar va ularni ifodalovchi soʻzlar bilan boyib boradi. Oʻzbek xalqi bilan hamohang tarzda oʻzbek tili ham oʻzining tarixiy rivojlanishida koʻplab boshqa xalqlar tillari bilan aloqada boʻldi. Shu bois, oʻzbek tili lugʻat tarkibining maʼlum qismini oʻzlashgan soʻzlar tashkil etadi [2;54].

Oʻzlashma qatlamga oid soʻzlar ikki guruhga ajratilgan holda tahlilga tortildi:

1)qadimiy (islomgacha boʻlgan) davr. Bunga sanskritcha, sugʻdcha va yunoncha unsurlar xos [2;133]. Jumladan, soʻgʻd (*báğbán* – *báğ* -*bán* affiks qoʻshilishi), sanskrit (*Čin* – “Xitoy”), yunon (*iqlim* – “mintaqa,oʻlka”), qadimgi

yahudiy (*Jabràil* – “xabar keltiruvchi farishta”) tillariga doir o‘zlashmalar tadqiq etilgan.

*Tarbiyat-u sa’y qilur bāğbān,
Taza bolur, meva berür bostān!* [7;7].

Bāğ so‘zi dastlab Turfon matnlarida “mevazor, chamanzor” ma’nosini anglatgan: *Azu bāğ borluqī tariğ* – yoki bog‘, uzumzor, ekinzorda (DTS, 77). Mahmud Qoshg‘ariyning lug‘atida ushbu so‘z “uzumzor” ma’nosini ifodalagan (DTS, I, 77).

*Jubsali bolsa sačayin ānča dur,
Oylaki bolsun yeti iqlim pur* [7;6].

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida “mintaqa, hudud, o‘lka” ma’nosini anglatgan *iqlim* (DTS,211) istilohi masnaviyda o‘z semasini saqlab qolgan. XIV asrdagi Xorazm manbalarida “mintaqa”, “mamlakat” ma’nolarida qayd etilgan: *Yeti iqlim taxti xayli boldi* (XIII, 31b8); *Özgä iqlimğa barib ne hāl bilän bolsa tiriläyin*(G,24a10). Sh.Rahmatullayev ushbu leksema etimologiyasini quyidagicha izohlaydi: *ïqlim* > *iqlim*; asli “kesdi” ma’nosini anglatuvchi *qalama* fe’lining (ARS, 657) IV bob shaklidan hosil qilingan bo‘lib, arab tilida “mintaqa”, “klimat” ma’nosini, o‘zbek tilida esa asosan, “ob-havo, yer-suv sharoiti” ma’nosini anglatadi; yetti iqlimda birikmasi tarkibida “mintaqa” ma’nosi bilan qatnashadi (O‘TIL, II, 188).

2) nisbatan yangi (islom hamda mo‘g‘ullar istilosidan keyingi) davr. Mazkur guruhdan arabcha, fors-tojikcha va mo‘g‘ulcha o‘zlashmalar o‘rin egallaydi [3;133].

O‘zbek tiliga arabcha so‘zlarning kirib kelishi O‘rta Osiyoning arablar tomonidan fath qilinishi va uning ijtimoiy-siyosiy oqibatlari bilan bevosita bog‘liq. Arablar hukmdorligi davrida arab yozuvi mahalliy yozuvlar (turkiy run, xorazm, sug‘d)ni siqib chiqardi. “Ilmiy va badiiy asarlar arab tilida bitildi. Natijada, mahalliy aholi vakillari o‘z ona tili bilan bir qatorda, arab tilida ham yoza va gapira oladigan bo‘ldi. O‘rta Osiyolik mashhur olimlar – Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Ahmad Farg‘oniylar o‘z ilmiy asarlarini arab tilida yozganlar [6;42]. “Gulshan ul-asror” asarida payg‘ambarlar, ularning hayoti va faoliyati

ifodalanganligi, Qur'oni karim, Hadisi sharif hamda boshqa diniy manbalar asosida yaratilganligi bois unda ko'p miqdorda arabcha so'zlar uchraydi. Asar leksikasida ifodalangan arabcha istilohlar 590 ta bo'lib, soni jihatdan turkiy leksemalardan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Erdi Sulaymàn bu ulus sultàni,

Budur ulus, sorki Sulaymon qàni?! [7;8].

Sultān o'zlashmasi *sultān (un)* shakliga ega bo'lib, "hukmdor deb e'lon qildi" ma'nosini anglatuvchi *saltana* fe'lining I bob masdari hisoblanadi (O'TIL,II,395). Bu leksema ba'zi musulmon mamlakatlarida VIII asrdan boshlab ishlatilgan podsho unvoni: XI asrda O'rta Osiyoning ko'pgina feodal davlatlarida podsholar unvoni; Hindiston va Indoneziyada ayrim knyazliklar hokimlarining unvoni, shuningdek, "hukmron, sulton" ma'nolarida *sultān* lug'aviy birligi Xorazm yodgorliklarida keng qo'llanilgan. H. Dadaboyev ilmiy izlanishlarida bu so'z dastlab A.K.Borovkov tomonidan tadqiq etilganligini ta'kidlagan. Mo'g'ullar istilosi davrigacha *sultān* lug'aviy birligi Takash tomonidan tashkil qilingan Old va O'rta Osiyodagi mustaqil davlat hukmdoriga nisbatan, mo'g'ul xoqonligining yemirilishidan so'ng O'rta Osiyodagi Chingizxon avlodidan bo'lgan hukmdorlarga nisbatan ishlatilgan [3;133].

O'rta Osiyo hududida azaldan turkiy aholi istiqomat qilgani tarixdan ayon .O'rta Osiyo – Ikki daryo oralig'ida qadimdan forsiy tilda so'zlashuvchi aholi turkiylar bilan birgalikda yashab kelgan. Ular Ahmoniylar hukmronligi davrida (mil.avv. VI–IV asrlar) katta ta'sirga ega bo'lgan bo'lsa, ularning keyingi yirik oqimi Movarounnahr hududlariga arablar bilan birga kirib keldi [5;23]. Shu tariqa, turkiylar bilan forsiyzabon aholi o'rtasida ijtimoiy-siyosiy, diniy-madaniy munosabatlarning o'ta serqirraligi har ikki til tizimida ham aksini topgan. Asar mazmun-mohiyatini ochib berish maqsadida "Gulshan ul-asror" masnaviysida forsha-tojikcha o'zlashmalar faol qo'llangan bo'lib, jami 310 ta leksemani tashkil qiladi.

Masalan, *Payğambar* leksemasi (payğàm – “xabar, mujda”) “Xudoning xohish-irodasini bandalarga yetkazuvchi ilohiy vakil, nabi, rasul“ (O‘TIL, III, 205) ma’nosini ifodalagan va asosan sarlavhalarda keltirilgan: *Sulaymàn payğambar haqida hikáyat* (15A-7). Bu tojikcha ot “xabar” ma’nosini anglatadigan *payğom* otiga (TjRS, 296) “keltir-“ ma’nosini anglatadigan *burdan* fe’lining (TjRS, 85) *bar* hozirgi zamon asosini (TjRS, 45) qo’shib hosil qilingan. Bu ot tarkibidagi *o* (*â*) tovushi tojik tilida *a* tovushiga almashtirilgan (O‘TIL, III, 181). Masnaviy lug‘at boyligida o‘zlashmaning arabcha *nabiy//nabi; rasul* ma’nodoshlari ham keltirilgan.

Dihqàn so‘zi fors-tojik tili zaminida yasilib, keyinchalik turkiy tillarga o‘zlashgan va “yerga ishlov beruvchi, urug‘ ekib hosil oluvchi shaxs” ma’nosini ifodalovchi leksema hisoblanadi, masnaviy so‘z boyligida ham ushbu ma’noni ifodalab kelgan:

Tökmäsä dihqàn araqi páy bil,

Yemişiniñ fáidasin tobmas el! [7;6].

Dihqàn // dehqàn so‘zi VII–XIII asrlarda turkiy xalqlar tilida qo‘llangan bo‘lishi kerak. Lekin u O‘rxun-Yenisey run bitiklari, Mahmud Qoshg‘ariy lug‘ati, “Qipchoq tili lug‘ati”da qayd etilmagan. Dastlab XIV asr Xorazm yozma yodgorliklari, keyinchalik Alisher Navoiy asarlarida qayd etiladi: *Ču men bir jàm üčün dihqàn asirimen, ajab ermäs,*

Libásim tâk bargi rišta belbáğlargä tak olmaq (G‘.S. 337). So‘zning tuzilishi qo‘shma bo‘lib, u ikki mustaqil til birligidan tashkil topgan. Fors-tojik tilining yozma manbalarida X asrlardan boshlab qayd qilingan yozma yodgorliklarda quyidagi ma’nolarda qo‘llangan: 1) qishloq arbobi, qishloq xo‘jayini; yer egasi, boy; 2) yer ishlari bilan shug‘ullanuvchi; 3) fors, tojik xalqi; 4) tarixni biluvchi, qissa aytuvchi (F.Z.T. 1, 1969, 365). *Dehqon* so‘zi semit tillari oilasiga kiruvchi hozirgi arab tilida ham دهقان ko‘pligi دُهَاقِنَة yoki دُهَاقِين kabi shakllarda qo‘llanib, dohiy, yo‘lboshchi, sarkarda, mashhur va ulug‘ kishi ma’nolarini bildiradi. Bu fakt shuni tasdiqlaydiki, *dehqon* so‘zi arab tiliga VII–X asrlarda o‘tib o‘zlashgan bo‘lishi kerak. Chunki bu so‘zning daslabki shakli *deh + xoon–xon* va qishloq xoni, qishloq shohi ma’nosini anglatgan bo‘lishi kerak. Keyinchalik esa

yana yangi qo‘shimcha ma’nolar bildira boshlagan. *Dehqon* so‘zining strukturasi tarixan qo‘shma bo‘lib, u fors-tojik tili zaminida yasalgan. Uning birinchi komponenti fors-tojikcha (*deh* – qishloq) va ikkinchi komponenti *qon* < *qoon* < *xoon* < *xon* turkiy tildan o‘tib o‘zlashgan til birligidir [1;85].

Adib so‘z o‘zlashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratgan. Qolaversa, shoir ijod qilgan davrda arab tili ilm-fan, fors-tojik tili esa, badiiy adabiyot tili darajasiga aylanib ulgurgan edi. Shuning uchun ham asarda arabcha va fors-tojikcha so‘zlar faol qo‘llangan va bu tabiiy hol deb bilingan. Binobarin, asarda arabcha, fors-tojikcha o‘zlashmalarning ayni shaklda, ba’zi fonetik va semantik o‘zgarishlar bilan qo‘llanishi o‘sha davr siyosiy-ijtimoiy, adabiy-madaniy, ma’rifiy muhitida arab va fors-tojik tili, arab yozuvi va diniy ta’limotning tutgan o‘rni bilan izohlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бафоев Б. Кўхна сўзлар тарихи. – Тошкент: Фан, 1991.
2. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985.
3. Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI – XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991.
4. Мухторов А., Санақулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
5. Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилининг юзага келиши ва тикланиши. – Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006.
6. Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А., Ўзбек тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
7. Хоразмий, Найдар. “Gulshan ul-asror” (Mahzan ul-asror) qo‘lyozmasi. O‘zRFA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi. № 37.

8. Яхшиев А. Этногенез, ёзув, тил ва тарих // Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 2006. – №4. – Б. 23.

9. Ўзбек адабий тилининг тараққиёти. 3 жилд. Лексика. – Тошкент: Фан, 1991.